XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHI
Q A R O R I

150100, Farg‘ona sh., Alisher Navoiy k., 15-uy, tel: (73) 244-07-35, e-mail: info@ferghana.uz, www.ferghana.uz

2023 - yil 25 - oktabr VI-60-103-11-0-K/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Viloyat hududlarida suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni qayta ko‘rib chiqish va ma’qullash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investisiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni bilan, 2020 yil 1 oktyabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma’qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2020 yil 17 iyul kuni “Hududlarda ichimlik suv va kanalizatsiya tizimini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 59-sonli bayoni 7-band 6-xat boshisida “suv ta’minoti hududiy korxonalarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish xarajatlarini inobatga olgan holda, tariflarni xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlash tartibini ishlab chiqish nazarda tutilsin” deb belgilangan.

Shunga ko‘ra, “Farg‘ona suv ta’minot” MCHJ 2023 yil 19 sentyabrdagi

01/971-sonli xat orqali murojaat qilib, yangi ishlab chiqilgan ichiimlik va oqava suv tariflarini ma’qullash masalasini xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritilishini so‘ragan.

Xususan, ichimlik va oqava suv xizmatlari bo‘yicha tariflar viloyatda so‘ngi bor 2020 yil dekabr oyidan o‘zgartirilgan ya’ni aholi uchun ichimlik suv 1000 so‘m (1m3), byudjet va boshqa tashkilotlar uchun 1300 so‘m (1m3), aholi uchun oqava suv 300 so‘m (1m3), byudjet va boshqa tashkilotlar uchun 365 so‘m (1m3) miqdorida belgilangan.

Tariflarni shakllantirishda davlat dasturlari asosida viloyatimizda suvlashmagan aholi yashash punktlarini ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlari bilan ta’minlash uchun 400,0 mlrd so‘mdan ortiq qurib bitkazilgan ichimlik va oqova suv inshoatlari va tarmoqlari, jamiyat balansiga kirim qilinishi natijasida qo‘shimcha yillik amortizatsiya (eskirish) xarajat qiymati 28,0 mlrd.so‘mga ortishi, o‘tgan davr mobaynida, respublikada belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, ya’ni ish haqi uch marotaba (PQ-4938, 30.12.2020y., PF-138, 20.05.2022-y., PF-45 28.03.2023 y) oshirilishi natijasida, mutanosib ravishda suv ta’minoti korxonalarining ishchi-xodimlarga to‘layotgan ish haqi miqdori ham oshib, ish haqi xarajatlarini 2020 yilga nisbat 50% ga yaqin o‘sishi natijasida yillik ish haqi fondi 44,5 mlrd.so‘mga ortishi va Hukumat kafolati ostida olingan kreditlarni qaytarish xarajatlari yillik 6,6 mlrd.so‘mga ortishi, elektr energiya xarajatlari 2022 yilda 43,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, joriy yil 1 oktyabrdan elektr energiya tarifining ortishi natijasida 87,3 mlrd.so‘m xarajat qo‘shimcha qo‘shilishi kutilmoqda.

“Farg‘ona suv ta’minot” MCHJ tomonidan taklif etilayotgan tariflar O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat xududiy boshqarmasi hamda narxlarni tartibga soluvchi organ ya’ni viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli xulosalar taqdim etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, viloyatda suv ta’minoti va oqova suv xizmatlarini ko‘rsatish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, hududlarda ichimlik suv va kanalizatsiya tizimini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini jadallashtirish, shuningdek suv ta’minoti tashkilotining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-

moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 sentyabrdagi PF-6074-son Farmoni bilan, 2020 yil 1 oktyabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma’qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

“Farg‘ona suv ta’minot” MCHJ 2023 yil 19 sentyabrdagi 01/971-sonli;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2023 yil 19 sentyabr kungi № 03/09-01-18/2525 sonli;

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2023 yil 25 sentyabr kungi 01-04/2589 sonli xatlari inobatga olinsin.

3. Viloyat hududlarida suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq ma’qullansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘ziyev), O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Farg‘ona viloyatidagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (S.Jo‘rayev), O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov), “Farg‘ona suv ta’minot” MCHJ (M.Yuldashev) bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan ma’qullangan suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni o‘rnatilgan tartibda qo‘llab borilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini olib borsin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (D.Djurayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida,

hokimlik muassisligidagi gazetalarda (rasman e’lon qilingandan keyin ikki kundan kechikmay) e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur qaror bilan ma’qullangan suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

7. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” hamda “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengash raisi **X. Bozarov**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 25-oktabrdagi
VI-60-103-11-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududlarida suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlari (tariflar)

№	Xizmat turi	Narxlar (tariflar)		
		Aholi uchun (1 m^3 uchun) (so‘m hisobida)	Byudjet tashkilotlari uchun **1 m^3 uchun QQS siz** (so‘m hisobida)	Boshqa ulgurji iste’molchilar uchun **1 m^3 uchun QQS siz** (so‘m hisobida)
1	Ichimlik suv	1 900	2 991	2 991
	Oqava suv	450	777	777